

beriladigan standart soliq imtiyozlari miqdorini yashash minimumi miqdorida oshirishni taklif qilmoqdalar.

Bugungi kunga kelib JShDS soliq tizimi islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi, bu esa byudjetga ko'proq mablag'lar tushishini, shuningdek, soliq adolatliligini ta'minlaydi.

Hozirda dunyoning ko'p davlatlarida davlatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv stavkada, ya'ni o'sib boruvchi stavka, olinadi. Progressiv stavkani afzallik tomoni jismoniy shaxslarni daromadi oshib borgan bilan, soliq stavkani qiymati ham oshib boradi.

Rossiya Federatsiyasida o'rnatilgan 13% daromad solig'i stavkasi boshqa rivojlangan mamlakatlardagi shunga o'xshash stavkalarga qaraganda ancha erkindir. Misol uchun, AQShda fuqarolar uchun maksimal daromad solig'i stavkasi 31%, Frantsiyada - 54%, Daniyada esa bu ko'rsatkich 63% ni tashkil qiladi. Bizning fikrimizcha, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va to'lash tartibi yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Soliq imtiyozlari va soliq imtiyozlarini shakllantirish, ulardan foydalanish hamda bir qator boshqa masalalarga e'tibor qaratish o'rinlidir.

Shunday qilib, biz quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: progressiv soliqqa tortish shkalasini joriy etish jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda adolatlilik tamoyilini amalga oshirish va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobiga mamlakat byudjet tizimiga tushumlarni sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi" (yangi tahriri), 2019-yil 30-dekabr.*
2. *Jo'rayev A.S., Safarov G'.A., Meyliyev O.R. Soliqlar va soliqqa tortish (II Qism) / Darslik. - T.: 2019. - 263 b.*
3. *Niyazmetov I. "F.SH.SHAMSUTDINOV, SH.F.SHAMSUTDINOV Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi Avtoreferati. T.: BMA, 2018.-70*
4. *«Yangi O'zbekiston» gazetasi. 28.08.2021.*

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA UNING QO'LLANILISHI TAHLILI

Bozorov Shuhrat

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Oxirgi yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning natijasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratilib aholining turmush darajasi yaxshilanmoqda. Tadbirkorlikning oqilona yo'lga qo'yilishi hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga turtki bo'ladi. Shu boisdan tadbirkorlikning huquqiy asoslarini yaratib berish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Shundan kelib chiqib davlat xususiy sherikchilik asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda

hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26- aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risi”dagi qonun ma‘qullangan, O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risi”dagi qarori, O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining “Davlat xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qarori ayni muddaodir.

Davlat-xususiy sherikchiligi (DXSH) tushunchasiga iqtisodchi olimlarning bergan ta‘riflarini keltirib o‘tadigan bo‘lsak, tadqiqotchi S.E.Elmirzaev ta‘kidlaganidek “DXSH Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida DXShdagi mamlakat va hududiy miqyosidagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning samarali vositasi bo‘lib, davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan nazoratni ushlab turish va xususiy sektor bilan samarli iqtisodiy hamkorlikni o‘rnatishga qaratilgan investitsion loyihalarga mablag‘lar jalb qilish va amalga oshirish vositasi hisoblanadi. DXSh asosidagi investitsion loyihalarda xususiy sektor davlat tomonidan belgilangan shartlar va talablar asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish vazifalarini amalga oshiradi”. Yana bir iqtisodchi olimlardan U.I.Djumaniyazov fikriga ko‘ra “DXSH – amaldagi qonunlar doirasida davlatning uzoq muddatli strategik vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa tavakkalchiliklar, xavf-xatarlar, risklarni taqsimlash asosida xususiy sektor bilan aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, kerak bo‘lsa, siyosiy ahamiyatga molik ob‘ektlarni qurish yoki shu asnodagi ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish uchun xususiy sektor bilan amalga oshiradigan tom ma‘nodagi o‘zaro manfaatli aloqalaridir.”

Shuningdek, rus olimi A. Beliskayani fikriga ko‘ra “Davlat-xususiy sektor hamkorligi-davlat hokimiyati organlari va tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarining bevosita davlat manfaatlari va nazorati sohasidagi ob‘ektlarga nisbatan o‘zaro manfaatli hamkorligi, muhim davlat va jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan loyihalarni samarali amalga oshirish maqsadida hamkorlar o‘rtasidagi xavflarni taqsimlashni nazarda tutadi” deb ta‘riflagan.

Hozirgi davlat-xususiy sherikchilik qonunlari, yangi loyihalar dunyoning 130dan ziyod davlatida amalga oshib kelmoqda. O‘zbekiston, to‘g‘risini aytish kerak, bu masalada ozroq kech qoldi. Shunga qaramay, ishlar tez jadallashmoqda. Ayrim mamlakatlarda qonun yo‘q, ayrim mamlakatlarda agentlik yo‘q. Bizda agentlik tashkil qilingandan 6 oy o‘tib, qonun tashkil etildi. Mana endi biz ham qonunchilik shakllangan davlatlarga juda ham yaqin keldik. Prezidentimiz tomonidan 2019 yil 29 aprelda qabul qilingan 4300-sonli qarorda 15ta yirik loyihalar qabul qilindi. 2 milliard dollardan oshiq bo‘lgan bu loyihalar jumlasiga, aeroportlar, yo‘llar, suv ta‘minoti, elektr energiyasi ta‘minoti sohalarida bo‘ladi.

Bu strategik ahamiyatga ega bo‘lgan sohalarida loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Investitsiyalarni jalb qilish uchun asos sifatida ishlar olib

borilmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik sohasining bunga nima daxli bor? Masalan, maktabgacha ta’lim tizimini olaylik. Maktabgacha ta’lim uchun avvalo bino bo’lishi kerak, Bular biznes uchun infratuzilmaning sifatini oshiradi. Bu mahalliy investorlar uchun qulayliklar keltiradi.

Bu bitimning o’ziga xos alomatlari shundan iboratki, loyihaning xatari, moliyaviy manbalar ham xususiy sektor zimmasida bo’ladi. Bu moliyaviy manbani olib kirishdan nima manfaatdor degan savol tug’ilishi mumkin. Avvalo bu davlatning talabi bor joylarga kiritiladi.

Aholi infratuzilmalarini oshirishga qaratilgan sohalar aeroportlar, yo’llar, tibbiyot sohasi bo’lishi mumkin. Bu loyihalar 3 yildan 49 yilgacha bo’ladi. Bu shuni anglatadiki, loyiha murakkabdir. Chunki, vaqtlar o’tib ko’p narsalar, masalan narxlar, iste’molchilar, mamlakat demografiyasi o’zgarishi mumkin. Shuning uchun, buni puxta tayyorlash lozim. Loyihani tayyorlashda g’oyadan boshlab shartnomani imzolashga 18 oygacha vaqt talab etiladi. Bunga zamonaviy menejment tizimini joriy qilish ham mumkin.

O’zbekiston bozor iqtisodiyotiga o’tganiga salkam 30 yil bo’lmoqda. Nega O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi (Davlat sherigi) tomonidan tadbirkorlik subyektlari (Xususiy sheriklar) bilan maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik to’g’risida bitimlar imzolanib kelinmoqda.

Maktabgacha ta’lim vazirligi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2018-yildagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yana-da rag’batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3651-son qarorida va davlat-xususiy sheriklik to’g’risidagi bitimlarning tegishli bandida ko’rsatilgan majburiyatlarini bajarib, xususiy sheriklarga yer uchastkasi yoki (va) bino ajratilishida va uni ta’mirlash hamda rekonstruksiya qilish uchun imtiyozli kredit mablag’lari berilishida ko’maklashgan

Maktabgacha ta’limi sohasida davlat va biznes o’rtasidagi sherikchilik uchun shart-sharoitlar yaratish, DXSh loyihalarini amalga oshirish uchun ularning potensialini ishlab chiqish va birlashtirish hamda mamlakat iqtisodiyotiga xususiy investitsiyalar hajmini oshirish maqsadida markaz tomonidan Davlat xususiy sheriklik veb-portali yaratildi.

Hozirgi kunda davlat infratuzilmasini uzoq muddatli moliyalashtirish maqsadida xususiy kompaniyalarni keng ko’lamda jalb qilishda davlat xususiy sheriklik (DXSH) ob’ektlar mexanizmlardan foydalanadi. Jahonda hozirgi kunda DXSH faoliyati keng tarqalgan bo’lib har-bir mamlakat uni qo’llanish uslubi va sahalari turli xildir. davlat uchun ahamiyatga ega bo’lgan mamlakat barqaror rivojlanishiga hissa qo’shadigan munosabatlarni amalga oshirishda rivolangan davlatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O’zbekistonda loyihalarni amalga oshirishda bir qancha muammo va kamchiliklarga duch keladi. Ko’pincha xavf va xarajatlarni yetarli darajada aniqlash va baholash yo’q, buning natijisida loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishning yomonligiga va yirik loyihalarni qabul qilishdan voz kechishga olib keladi. Ushbu muammolarni hal qilishda jahon amaliyotining eng samarali

usullaridan biri DXSH munosabatlari asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonida suv xo‘jaligi ob‘ektlarini davlat xususiy sherikchilik tamoyillari asosida boshqarish ta‘kidlab o‘tilgan[2]

O‘zbekiston hukumati tomonidan davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonun va Xususiy sheriklarni tanlash qoidalari, davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator huquqiy-me‘yoriy chora-tadbirlar qabul qilindi. Jumladan Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 3-mayda ma‘qullangan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunning tadbiiq etilishi. Hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonida Suv xo‘jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarishni, Toshkent shahrida oqova suvini tozalash tizimini shahar hududidan tashqariga chiqarib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi inshootlarni barpo etish takidlab o‘tilgan.[2]

Yana shuni ham alohida takidlab o‘tish kerakki Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd AQSh dollari investitsiyalarni jalb etish ko‘zda tutilgan. [2]

Hozirgi kunda dunyoda davlat-xususiy sherikchilik g‘oyasi ancha keng tarqalganligi hech kimga sir emas. Britaniya moliyaviy xizmatlari eksportini qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanadigan London xalqaro moliya xizmatining hisobotiga ko‘ra, dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlari davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini ishlab chiqishgan. Xorijiy mamlakatlarda davlat-xususiy sherikchilikni qo‘llash sohalari juda xilma-xildir. Hamkorlar o‘rtasidagi sheriklik (hokimiyat organlari va biznes) turli tuzilmalar doirasida har xil ko‘lamdagi vazifalar va kompetensiyalar bilan amalga oshirilishi mumkin.

S.V.Shishkina, M.Ya.Mirkin va boshqalar.Rossiya olimlari asarlarida “DXSh” atamasi quyidagicha izohlanadi: “Davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy jihatdan mustahkamlangan shaklidir. Davlat va xususiy mulk, muassasalar va korxonalar tomonidan iqtisodiy faoliyatning keng doirasi bo‘yicha ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadidaamalga oshiriladigan va ko‘rsatiladigan xizmatlar” [5].

V. G. Varnavskiy ichki iqtisodiy nazariya va amaliyotda DXSh talqinlarining ko'pligini quyidagi holatlar bilan izohlaydi:

1) mavzuning xiralashishi, chegaralarning noaniqligi va zamonaviy iqtisodiyotning DXSh kabi murakkab hodisasini belgilaydigan me'yoriy-huquqiy bazaning cheklanganligi;

2) DXSh hozirda nisbatan yangi hodisa sifatida harakat qilmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, V. G. Varnavskiy davlat-xususiy sheriklik ta'rifini beradi: DXSh – bu davlat va kommunal mulk ob'ektlariga, shuningdek davlat va munitsipal organlar, muassasalar va korxonalar tomonidan bajariladigan va ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro ta'sir shaklini birgalikda moliyalashtirish va xatarlarni taqsimlashni o'z ichiga olgan ma'lum muddatga qonuniy ravishda mustahkamlangan"[6].

DXSh bu – Davlat va muayyan sektor tomonidan davlat infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda yoki modernizatsiya qilish uchun ikki tomonlama tuzilgan aniq muddatli shartnomadir.[7]

Iqtisodiy o'sish va aholining o'sishi davlatdan yo'l tarmog'ini tegishli ravishda rivojlantirishni, energiya quvvatini oshirishni, yangi suv ta'minoti va chiqindilarni qayta ishlash ob'ektlarini qurishni, bu sohalarda turli xil imtiyozli kreditlar joriy qilishni va boshqalarni talab qildi.

Shu o'rinda DXSh tizimi eng yaxshi rivojlangan davlatlarning faoliyatini ko'rib o'tamiz. Davlat- xususiy sheriklik (DXSh) munosabatlaridunyoing ko'plab mamlakatlari, jumladan Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Australia, Germaniya va Rossiya tomonidan keng qabul qilingan. Ushbu mamlakatlar modelni o'zlarining individual iqtisodiyoti va ehtiyojlariga moslashtirdilar, ammo DXSh ortidagi umumiy tushuncha bir xil bo'lib qolmoqda.

DXSh tizimining samaradorligi tahlili Buyuk Britaniyada 1980-yillarda qabul qilingan xususiy moliya modeli 2018-yilda bekor qilinmaguncha, o'z faoliyati davomida 56 milliard funt sterlingga yaqin xususiy investitsiyalar bilan 700 dan ortiq DXSh loyihalarini jalb qildi. Mamlakat G'aznachiligi 2028 yilgacha infratuzilma rejasini tasdiqladi, unda 600 milliard funt sterling miqdoridagi investitsiyalar ko'zda tutilgan, shundan 50 foizi DXSH orqali jalb qilinishi kerak. 2017-2021 yillarda Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Buyuk Britaniya 2000 dan ortiq loyihalarga ega bo'lgan infratuzilmada loyihalar soni va jalb qilingan mablag'lar hajmi bo'yicha Yevropa bozorida yetakchilardan biri hisoblanadi. Bu davrda umumiy qiymati qariyb 7,5 milliard yevroga teng 30 dan ortiq loyiha amalga oshirildi. Qo'shma Shtatlarda Federal hukumat DXShlarni rivojlantirishda faol rol o'ynadi. Masalan, AQSh transport departamenti shtat hukumatlariga ham, mahalliy hokimiyatlarga ham transport DXShlarini rivojlantirish uchun moliyaviy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, u transport loyihalarini amalga oshirishga yordam beradigan qo'shma korxonalar yaratish uchun xususiy kompaniyalar bilan ishlaydi.

Barcha darajadagi DXShlarni samarali rivojlantirish uchun yaratilgan Milliy Kengash ma'lumotlariga ko'ra, AQShning DXSh mexanizmi orqali amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari 200 yildan oshgan. Hozirda 1000 ga yaqin loyiha ishlar qolmoqda.

Yevropa DXSh rivojlanish markazining hisob-kitoblariga ko'ra,DXSh loyihalariningFrantsiyadagi infratuzilma investitsiyalarining umumiy hajmidagi ulushi 12% ga etadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yildan 2021 yilgacha Frantsiyada 80 ga yaqin PPP loyihalari amalga oshirilgan umumiy qiymati 13 milliard evrodan ortiq. Shunday qilib, Frantsiya ushbu ko'rsatkich bo'yicha so'zsiz etakchi hisoblanadi.[9] 2022-yilda Yaponiya hukumati infratuzilma va boshqa loyihalarda davlat-xususiy sheriklikni (DXH) osonlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirishi mumkin. Shunday qilib, xorijiy biznes uchun turli sohalarda yapon hamkorlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari kengayishi mumkin.Qayta tiklanadigan energiya, sog'liqni saqlash, transport va raqamli infratuzilma kabi sohalarda eng ko'p foyda keltirishi mumkin. Masalan, energetika, sog'liqni saqlash va raqamli infratuzilma tashabbuslari uchun ekspertiza, loyiha yoki moliyaviy boshqaruv xizmatlari hamda texnologik yechimlarni taqdim etish uchun xorijiy firmalarga talab bo'lishi mumkin.DXSh loyihalarini boshqarish tizimining muvaffaqiyati mezonlari va ularning xususiyatlari

Shu munosabat bilan shakllangan va samarali faoliyat yuritayotgan davlat-xususiy sheriklik tizimida xususiy va davlat sektorlarining o'zaro hamkorligini amalga oshirishning samarali mexanizmlarini izlash zarur.

Davlat-xususiy sheriklikning (DXSh) xorijiy tajribasi hamkorlikning ushbu modeli bilan bog'liq afzalliklar, imkoniyatlar, xavf va qiyinchiliklarni ko'rsatdi. Xususan, DXShlar davlatga xususiy sektor resurslaridan, ekspertizadan va davlat loyihalarini amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanish imkonini beradi, shu bilan birga moliyaviy risklarni yumshatadi va davlat xizmatlari samaradorligini oshiradi.Qolaversa, davlat-xususiy sheriklik loyihalari moliyaviy tejamkorlikning hozirgi tendentsiyasi tufayli ommalashib bormoqda, chunki ular hukumatlarga xavfni xususiy sektorga o'tkazish, byudjet xarajatlarini kamaytirish va maqsadli narxlarni belgilash orqali xizmatlardan foydalanuvchilarga xarajatlarni o'tkazish imkonini beradi.

Xorijiy mamlakatlarda DXShning asosiy shakllari tasnifi "Design Build - DB" loyiha ishlari va qurilish uchun belgilangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim muassalarining umumiy soni bo'yicha tahlil qilinganida Xatirchi tumani yuqori o'ringa ega bo'lsada bolalarni qamrab olish bo'yicha kam foizni tashkil etadi. Chunki bu hududda oilaviy maktabgacha ta'lim muassalarining soni yuqori. Undan keyin qiziltepa tumanida maktabgacha ta'lim muassalarining soni 177 tani tashkil etib, bolalarni qamrab olish darajasi 75,6 % ni tashkil etadi.


Navoiy viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida 2023 yil 1-yarim yillik yakuni bo'yicha

Ma'lumot

T/R	Hududlar nomi	Jami 3-7 yoshli bolalar soni	2023 йил 6 ойи бўйича (УМУМИЙ)			Shundan				Shundan					
			MTT lari bo' yicha soni	Tartibyalanuvchilar soni bo' yicha	Qamrov foizi bo' yicha	Davlat		Nodavlat		Xususiy		DXSH		Oilaviy	
						MTT soni	Boла soni	MTT soni	Boла soni	MTT soni	Boла soni	MTT soni	Boла soni	MTT soni	Boла soni
1	Navoiy shahar	11677	96	11297	96,7	34	9284	62	2013	5	203	6	764	51	1046
2	Zarafshon shahar	7070	40	6985	98,8	20	6639	20	346			2	92	18	254
3	G'ozg'on shahar	840	13	772	91,9	4	540	9	232					9	232
4	Karmana tumani	11049	131	8707	78,8	29	4811	102	3896			22	1942	80	1954
5	Navbahor tumani	9251	141	7049	76,2	17	2804	124	4245			12	1324	112	2921
6	Nurota tumani	7105	89	5038	70,9	20	3171	69	1867			6	500	63	1367
7	Konimex tumani	3042	47	2458	80,8	15	1768	32	690			1	100	31	590
8	Qiziltepa tumani	12071	177	9130	75,6	37	5568	140	3562			8	733	132	2829
9	Xatirchi tumani	17675	434	14017	79,3	20	4756	414	9261			16	1064	398	8197
10	Uchquduq tumani	3561	35	3172	89,1	15	2713	20	459			2	145	18	314
11	Tomdi tumani	834	13	605	72,5	8	517	5	88					5	88
Jami		84175	1216	69230	82,2	219	42571	997	26659	5	203	75	6664	917	19792

Bolalarni qamrovi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, eng yuqori o'rinda Zarafshon shahri 98,8 %, Navoiy shahar 96,7%, G'ozg'on shahar 91,9%, Uchquduq tumani 89,1%, Konimex tumani 80,8%ni tashkil etadi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining soni bo'yicha tahlil qladigan bo 'lsak, bunda xatirchi tumanida 414 ta ikkinchi o'rinda Qiziltepa tumani 140 Navbahor tumanida 124 ta, Karmana tumani 102 tadan iborat.

Shundan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalarning qamrovi bo'yicha eng yuqori o'rinda Xatirchi tumani 9261 ta bolani, keying o'rinda Navbahor tumani 4245ta, Karmana tumani 3896ta bola, qiziltepa tumani 3562 ta bolani qamrab olgan.



Navoiy viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida 2023 yil 1-yarim yillik yakuni bo'yicha

DXSh ning afzalliklaridan biri yangi ish o'rni yaratib, o'sha hududning iqtisodiy-ijtimoiy infrastrukturasi yaxshilaydi. Shuningdek, sohaning ushbu sohadagi harajatlarni qisqartirib, iqtisodning raqobatbardoshligini oshiradi. Hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida DXSH ning o'rni katta.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, DXSHdan foydalanish dunyoning ko'plab mamlakatlarida infratuzilmani rivojlantirish va davlat xizmatlarini ko'rsatishda muvaffaqiyatli yondashuv bo'lib kelmoqda. O'zbekiston DXSH lar uchun huquqiy bazani yaratishda sezilarli yutuqlarga erishdi va o'z oldiga DXSH sektoridagi ishtirokni oshirish bo'yicha katta maqsadlar qo'ydi.

Mamlakatda to'g'ri yuritilayotgan siyosat me'yoriy hujjatlar va imtiyozlar bilan O'zbekistondagi DXSHlar xususiy sektor mablag'lari, tajriba va texnologiyalarni jalb qilish hamda infratuzilmadagi bo'shliqni tugatishga yordam berish imkoniyati mavjud.

O'zbekistonda davlat xususiy xususiy hamkorlikning to'liq afzalliklarini ro'yobga chiqarish uchun hukumat yaxshi investitsiya muhitni ta'minlash xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish aniq va shaffof me'yoriy-huquqiy bazani yaratishda davom etishi kerak. Bu ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi,

davlat-xususiy sheriklik loyihalari O‘zbekiston uchun o‘zining ulkan rivojlanish dasturini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni yaxshilash va uzoq muddatli barqaror o‘shishni ta‘minlashda asosiy vosita bo‘lishi mumkin deb o‘ylayman.

O‘rganilgan ma‘lumotlar asosida yetakchi xorijiy davlatlarda DXShning muvaffaqiyatli ishlashi uchun belgilangan mezonlar asosida O‘zbekiston Respublikasi DXSh tizimini quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish mumkin:

1. Boshqaruv va iqtisodiy mutaxassisliklar va ixtisoslashtirilgan kompetentsiyalar bo‘yicha zarur malakaga ega bo‘lgan DXSh loyihalarini amalga oshirish va boshqarish sohasida vakolatlarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash.

2. Loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini oshirish. O‘zbekistondagi DXSh tizimi hozirda ko‘p jihatdan davlat mablag‘lariga tayanadi, xususiy moliyalashtirish anbalaridan kamdan-kam foydalaniladi. DXSh loyihalarini yanada muvaffaqiyatli qilish uchun xususiy moliyalashtirishni rag‘batlantirish kerak.

3. Loyihalar bo‘yicha mavjud eng yaxshi va maqbul yechimlar asosida DXSh loyihalarini amalga oshirish natijalarini monitoring qilish tizimini yaratish.

4. DXSh loyihalarini sifatli tanlash, ularni aniq farqlash uchun samarali mexanizm yaratish.

5. Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash. O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari bo‘yicha amaldagi huquqiy va me‘yoriy baza nisbatan zaif va uni yangilash va mustahkamlash zarur. Bu DXSh loyihalari shaffof va adolatli bo‘lishini ta‘minlaydi, shu bilan birga xususiy sektor uchun aniq ko‘rsatmalar va himoyani ta‘minlaydi.

Xatarlarni taqsimlash mexanizmlarini joriy etish. Xususiy sheriklar muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirish uchun rag‘batga ega bo‘lishini ta‘minlash uchun DXSh loyihalari uchun xavflarni taqsimlash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu mexanizmlar davlat sektori uchun xavf yukini kamaytirish va xususiy sektorning loyiha muvaffaqiyatida ulushga ega bo‘lishini ta‘minlash uchun joriy etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyevning-oliasy>, 28.12.2018

2. Айрапетян М. С. Зарубежный опыт использования государственно-частного партнерства // Государственно-частное партнерство в России: [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.ppp-russia.ru/>

3. analitica/item-1.html.

4. O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risi”dagi qonun. <https://lex.uz/docs/-4329270>

5. Global Infrastructure Hub. URL: <https://www.gihub.org> (Accessed 16.06.2022).